

## TURIZM EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH OMILI SIFATIDA

### **Annotatsiya:**

**Kirish.** Maqlada hozirgi sivilizatsiya uchun shakllanishi o'ta zarur bo'lgan ekologik madaniyatning mohiyati, xususiyatlari hamda uni shakllanishida turizm tarmog'ining o'ziga xos o'rni tahlil qilib chiqilgan, jahonning turizmni tartibga soluvchi xalqaro tashkilotlarining bu borada ishi ko'rib chiqilgan. Muallif madaniyatning bu qirrasini shakllanishida hukumat va jamiyat oldida turgan vazifalar, ularni bajarish zarurati haqida so'z yuturitiladi.

**Tadqiqot metodlari.** Maqlada monografik usul va ilmiy abstraktsiya metodidan foydalanib ekologik madaniyatni, uning iqtisodiy jihatlari tahlil qilingan, tizimli tahlil usulini qo'llash orqali ushbu madaniyatni shaklanishida turizm sohasining o'ziga xos vazifalari ko'rib chiqilgan. Bundan tashqari, ilmiy izlanishda tarixiylik metodidan, analiz va sintez metodidan foydalanib madaniyatning ushbu qirrasini takomillashtirish vazifalari belgilangan. Tadqiqotda bundan tashqari kuzatish, solishtirish, iqtisodiy-matematik tahlil kabi metodlardan ham foydalanilgan.

**Natijalar va munozara.** Insonning tabiiy jarayonlardan noto'g'ri foydalanishi natijasida XX asrning o'rtalarida ekologik muammolar juda avj ola boshladi. Insonning tabiatga aralashuvi asr oxiriga kelib esa, juda kata salbiy kuchgaaylanib ketdi. Insoniyatning kelajagi ushbu ekologik muammoni oqilona hal qilish bilan bevosita bog'liq bo'lib qoldi. Olimlar jamiyat tarixida insoniyat oldida hech qachon bunday keng ko'lamli, ko'p qirrali va hal qilish qiyin bo'lgan vazifa ko'ndalang bo'limgan, degan xulosaga kelishdi. Bu muammoni hal qilishning ishonchli va istiqbolli yo'llaridan biri esa ekologik turizm degan xulosaga kelindi. Zamonaviy insonning ekologik madaniyati va ekologik kompetentsiyasini shakllantirishni rag'batlantirish, insonlarning dunyoqarashlarini kengaytirish, adekvat hissiy va estetik rivojlanishni ta'minlash ushbu muammoni hal qilishning bosh yo'li ekanligi borgan sari aniq bo'lib bormoqda. Shu bilan birga, ekologik turizm ham sayyohlik faoliyatining ommabop shakliga aylana boshlandi.

**Xulosa.** Ekologik muammolarni hal qilishning muhim vazifalaridan biri insonlarni, jumladan turistlarni tabiiy va madaniy boyliklarga hurmat ruhida tarbiyalash zarur. Avvalom-bor shu vazifani bajarishga turizm xalqaro miqyosda insoniy munosabatlar sifatini yaxshilashga qodir, dunyo xotirjamligiga, iqtisodiyotni barqarorligiga erishish imkonini berishi mumkin. Ekologik turizm ekologik madaniyatning zarur sharti bo'lgan - ekologik bilimlar asoslarini o'zlashtirishga yordam beradi.

**Kalit so'zlar:** ekologik muammo, ekologik madaniyat, ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, ekoturizm.

### **Kirish.**

Hozirgi vaqtida inson faoliyati ta'sirida biosferaning o'zgarishi juda tezlik bilan boryapti. Inson Yer planetasining qiyofasini o'zgartirishda katta geologik kuch sifatida vujudga kelganini V.I.Vernadskiy tomonidan ta'kidlab o'tilgan edi [26]. Insonning tabiiy jarayonlardan noto'g'ri foydalanishi natijasida XX asrning o'rtalarida ekologik muammolar juda avj olib ketdi. Ekologik muammo deganda, insonning tabiatga ko'rsatayotgan ta'siri bilan bog'liq holda tabiatning insonga aks ta'siri, ya'ni inson hayotda, uning iqtisodiyotida xo'jalik ahamiyatiga molik bo'lgan jarayonlar, tabiiy hodisalar bilan bog'liq bo'lgan har qanday hodisa tushuniladi. Iqlim o'zgarishi, hayvonlarning yalpi ko'chib ketishi, kamayishi, yo'qolib borishi kabi muammolar tabiatdagi muvozanatning buzilishi oqibatida turli miqyosdagi ekologik muammolar shakllanmoqda. Ekoturizm - bu ifloslanmagan tabiatning unikal obyektlari ko'rinishidan bahra

olish va rohatlanish, yovvoyi tarzda o`sadigan va hayot kechiradigan o`simlik va hayvonlar hayoti bilan tanishish hamda bunday joylardagi har qanday madaniy ko`rinishga aloqador tushunchadir. Ekoturizm, bir tomonidan, zararli oqibatlarni minimallashtirgan holda, umuman turizmning izchil va barqaror rivojlanishini ta'minlashga qodir bo'lsa, ikkinchi tomonidan, hozirgi va kelajak avlodlarning hayotiy ehtiyojlarini, birinchi navbatda, sog'lom turmush tarzi muhitiga bo'lgan ehtiyojni uyg'unlashtiradi.

Bir qarashda atrof-muhit muammolari oddiy va bir ma'noli ko'rindi. Ushbu murakkab masala bilan mutlaqo tanish bo'lмаган odamlar tabiatni muhofaza qilish, tabiatni oqilona boshqarish va ekologik ongni shakllantirish usullari haqida o'z fikrlarini bildiradilar. Adabiyotlarda (hatto ilmiy) yoki mansabdor shaxslarning nutqlarida "yomon ekologiya", "atrof-muhitni muhofaza qilish", "ekologiya uchun kurash", "atrof-muhitning keskinlashuvi" iboralari qo'llaniladi. Bu esa ishtirokchilarning ekologik madaniyati pastligidan dalolat beradi. Atrof-muhit muammolari bo'yicha jamoatchilik fikri doimo "ekologik infantilizm" yoki aksincha, "ekoisteriya" tartibida bo'ladi. Ekologik ta'lif va tarbiya tizimi zamonaviy odamlarda ekologik ongni shakllantirishning faol vositasidir, shuning uchun umumiyligini ta'lif jarayoniga ekologik tarkibiy qismlarni organik ravishda jalb qilish va uning didaktik yukini sezilarli darajada oshirish muammosi paydo bo'ldi.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Ekologik muammo, ekologik madaniyat masalalarini nafaqat zamonaviy filosoflar (M.Xaydegger, L.Memford, S.Krimskiy, M.Mamardashvili, E.Fromm, I.Frolov va boshqalar), zamonaviy Yevropa mentalitetlari tomonidan (A. Eynshteyn, M. Born, N. Wiener, V. Heisenberg, P. Kapitsa, M. Semenov va boshqalar), balki tabiatshunos olimlar tomonidan ham ekologik muammolar ko'rib chiqilgan, ularning asarlari ekologik turizm fanning shakllanishiga hissa qo'shgan [27.,28.,29.,30.,31]. Ekoturizm terminini esa birinchi bo'lib V.V. Xrebovchenko fanga kiritgan bo'lib, eng to`gri tushunchani 1997-yil G.S. Gujin, M.Yu. Belikov va E.V. Klimenkolar bergen: "Ekoturizm asosida tabiatni muhofaza etish tashvishlari yotadi" [32].

Inson tabiatan madaniy mavjudotdir, chunki u o'z madaniyatiga ko'ra tabiiy mavjudotdir, deb E. Morin o'zining "Yo'qotilgan paradigma: inson tabiat" (1995) asarida ta'kidlagan [33]. Tabiat yodgorliklari va madaniy diqqatga sazovor joylarni muhofaza qilish masalasi muhokama qilinayotgani shundan dalolat beradi. Akademik D.Lixachev "Madaniyat ekologiyasi" atamasini ilmiy muomalaga kiritdi va haqiqatda bu yo'nalishga asos soldi. Madaniy muhitni saqlash, uning fikricha, tabiiy, biologik xilma-xillikni saqlashdan kam emas. Tirik shakllarning haqiqati va hududlarning tabiiy xilma-xilligi hayot mazmunini, jumladan, ijtimoiy hayotni kafolatlaydi va mintaqalarning etnik-madaniy xilma-xilligi tabiiy biologik xilma-xillikni saqlashning kafolati hisoblanadi. Biroq, D.Lixachevning fikricha, tabiiy muhitda yo'qotishlarni qayta tiklash mumkin, ammo madaniyatda emas [14].

Tabiatshunos B. Grzimek, aksincha, yovvoyi tabiat insoniyat uchun qadimgi cherkovlar, yunon haykallari va Misr piramidalardan kam bo'lмаган madaniy qadriyat ekanligini ta'kidlaydi. Hayvonlar nobud bo'lmoqda va "hech bir arxeolog ularni bir necha asrlardan keyin yana yerdan qazib ololmaydi" [4].

Hozirgi vaqtida "ekologik turizm" atamasi keng tarqalmoqda, bu tabiat va madaniyat qadriyatlarining uyg'unligini rag'batlantirilishi mumkin bo'lgan jamiyatning haqiqiy hodisasini anglatadi. Ekologik turizm - madaniy, ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy, sport va rekreatsion ahamiyatga ega bo'lgan faol dam olishning o'ziga xos shakli bo'lib, atrofdagi tabiiy va madaniy muhit bilan tanishish maqsadida odamlarning doimiy yashash joyidan tashqarida sayohat qilishlari va qolishlari jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar va hodisalar yig'indisi sifatida belgilanadi [12.,19.,20.,24.,25]. Ekologik muammo va ekologik madaniyat kategoriyalarni Rossiyaning qator olimlari tomonidan ko'rib chiqilgan, boyitilgan: Г. П. Долженко, О. В. Ивлиева, Пазенок В. С., Путрик Ю.С., Савенкова Л.Б., Зорин И. В., Квартальнов В. А., Крисаченко В. С., Федорченко В.К. [5.,6.,7.,8.,9.,10.,11.,16.,17.,18.,19.,22]. Badalova M.F., Joldasov I.,

Mahkamova M., Aydarov Ye.B., Xudoyqulov X.J. kabi o'zbek olimlarning asarlarida ekologik madaniyatning ayrim qirralari bayon etilgan [35., 36.].

### **Tahlil va natijalar.**

“Ekoliya” so‘zi yunoncha bo‘lib “oikos” - uy, yashash joyi, “logos”- fan degan ma’noni beradi. “Ekoliya” atamasini fanga XIX asrda nemis olimi E. Gekkel olib kirgan. Ekoliya - tabiiy muhitning tirik ogranzmlarga ta’siri va ular o‘rtasidagi munosabatlardir. Ekologik muammo - bu atrof-muhitning buzilishiga olib keladigan muammodir. Bu kabi muammolarni ikkiga ajratish mumkin: inson va tabiatning o‘zaro ta’siri bilan bog’liq yoki insonning atrof-muhitga ta’siri bilan bog’liq.

O‘tgan asr davomida insoniyatning yashash tarzi shunchalik darajada o‘zgardiki, insoniyat sivilizatsiyasida hali mutlaqo kuzatilmagan global isish, dengiz va yer ekotizimlarining misli ko‘rilmagan darajada kamayib borishi-yu, yer yuzining turli mintaqalarida qurg‘oqchilik, suv toshqinlari kabi bir qator salbiy holatlar ham yuz berayotganligi barchamizga ayondir. Bir so‘z bilan aytganda, insonning tabiatga aralashuvi aql bovar qilmaydigan darajaga yetishga ulgurdi. Insoniyatning kelajagi esa ekologik muammoni oqilona hal qilish bilan bevosita bog’liq bo‘lib qoldi. Jamiyat tarixida insoniyat oldida hech qachon bunday keng ko‘lamli, ko‘p qirrali va hal qilish qiyin bo‘lgan vazifa ko‘ndalang bo‘lmagan.

Ekologik voqelikning davlatning siyosiy, iqtisodiy, demografik, ijtimoiy- gumanitar va ma’naviy-axloqiy rivojlanishining barcha jabhalariga ta’siri shu qadar yaqqol va keng ko‘lamliki, unga e’tibor bermaslik uzoqni o‘ylamaslik va mas’uliyatsizlikdir.

Bir qarashda atrof-muhit muammolari oddiy va bir ma’noli ko‘rinadi. Ushbu murakkab masala bilan mutlaqo tanish bo‘lmagan odamlar tabiatni muhofaza qilish, tabiatni oqilona boshqarish va ekologik ongni shakllantirish usullari haqida o‘z fikrlarini bayon etadilar. Adabiyotlarda (hatto ilmiy) yoki mansabdor shaxslarning nutqlarida “yomon ekoliya”, “atrof-muhitni muhofaza qilish”, “ekoliya uchun kurash”, “atrof-muhitning keskinlashuvi” iboralari qo’llaniladi. Bu esa ishtirokchilarning ekologik madaniyati pastligidan dalolat beradi. Atrof-muhit muammolari bo‘yicha jamoatchilik fikri doimo “ekologik infantilizm” yoki aksincha, “ekoisteriya” tartibida bo‘ladi.

Beton va asfaltlar orasida yashagan, tabiiy muhitga juda kam chiqadigan megapolislarda yashovchi zamonaviy odam o‘zini tabiat bilan bog’lash qobiliyatini asta-sekin yo‘qotdi, tabiat insoniyat tomonidan yaratilgan ijtimoiy institutlar, iqtisodiyotning, davlatning va hokazolarning “qo’shimcha” mahsulotiga aylandi. Shuni inobatga olgan holda, tabiiy va ijtimoiy, axloqiy va ratsionallik, ilmiy xarakter va “sofizm” o‘rtasidagi o‘zaro bog’liqlik muammolari nihoyatda dolzarb bo‘lib qoldi.

Oddiy inson tabiiy muhitni alohida bo‘laklar holda idrok etadi, uni bir butun sifatida ko‘rishga moyil emas, o‘zini tabiatdan alohida mavjud bo‘lgandek tutadi. Shu sababli, murakkab ob’ektiv voqeliklarni (ijtimoiy va tabiiy) anglash eng ustuvor vazifa bo‘lib, ularsiz sivilizatsiya rivojlanishi juda muammoli ko‘rinadi. Buni Rio-de-Janeyro (1992) va Yoxannesburg (2002) da bo‘lib o‘tgan BMTning atrof-muhit va rivojlanish bo‘yicha ikki xalqaro konferentsiyalari materiallari ishonchli tasdiqlaydi.

Hozirgi paytda insoniyat o‘z evolyutsiyasi yo’llarini qayta ko‘rib chiqishi va sivilizatsiyaning real istiqbollarini ob’ektiv baholashi zarurdir. Texnika taraqqiyoti insonning tabiiy va intellektual muhitini, dunyoqarashini tubdan o‘zgartirdi. Bundan tashqari, o‘tgan asrlar odamining an'anaviy - “piyodaning ko‘rinishi” o‘rnini avtomobil yoki samolyot oy’nasidan “ko‘rinish” egalladi. Insonning ko‘rgan narsasini (sayyoh sifatida ham, internet - televizordan ko‘rganini ham tushunishga vaqt yo‘q).

Ekologik ta’lim va tarbiya tizimi zamonaviy odamlarda ekologik ongni shakllantirishning faol vositasidir, shuning uchun umumiy ta’lim jarayoniga ekologik tarkibiy qismalarni organik ravishda jalb qilish va uning didaktik yukini sezilarli darajada oshirish muammosi ham paydo bo‘ldi.

Zamonaviy ekologik ta’lim tizimi klassik rasionalizm vositalariga tayanishda davom etmoqda, uning ideali inson taqdiriga bog’liq bo‘lmagan ob’ektiv haqiqatdir. Agar ekologik ta’lim

obyekti sayyoradagi energiyaning "bio-geo-kimyoviy" energiyaga aylanishlariga, ekotizimlarning turlariga va tabiatdan oqilona foydalanish tamoyillariga yo'naltirilgan bo'lsa, maqsadga erishilgan deb hisoblanar edi. Ammo, bu unchalik to'g'ri emas. Ekologik ta'limming strategik vazifalari tabiatdan foydalanishning fundamental asoslaridan biri sifatida umumiy ekologiya nazariyasi va amaliyotini o'zlashtirishdan tashqariga chiqadi. Turli xil ekologik empirizm haqidagi bilimlar yagona konseptual tizimga organik ravishda birlashtirilishi kerak. Ushbu muolaja juda muhim va ayni paytda murakkabdir. Hatto Albert Eynshteyn ham odamlar ko'p narsani bilishini va kam tushunishlarini ta'kidlagan edi. Tushunish ichki e'tiqod, sezgi bilan uzviy bog'liq bo'lib, dunyoga oqilona, muvozanatlari munosabatda bo'lish sharti oldida muhimdir. Vaziyatni tushunish va bilish chuqur ijtimoiy-madaniy va axloqiy kontekstga xosdir.

Turizm falsafasining muhim tarkibiy qismlaridan biri - uning ekologik komponentidir. Ekologiya ishlab chiqarish, iqtisodiyot, sog'lioni saqlash, atrof-muhitni boshqarish, siyosat, milliy va inson xavfsizligining an'anaviy hayotiy masalalarini o'zaro bog'laydi, u insonning moddiy va ma'naviy manfaatlarining namoyon bo'lishini birlashtiradi.

Jahon miqyosida turistlar oqimining o'sib borishi tabiiy muhitga ortib borayotgan bosim sifatida tahdid solmoqda. Kelgusi 20 yil ichida xalqaro turizm jahon bo'yicha kamida uch baravar oshishi kutilmoqda, shunga mos ravishda ekologik yuk ham ortadi.

**"Ekoturizm"**- bu ifloslanmagan tabiatning unikal obyektlari ko'rinishidan bahra olish va rohatlanish, yovvoyi tarzda o'sadigan va hayot kechiradigan o'simlik va hayvonlar hayoti bilan tanishish hamda bunday joylardagi har qanday madaniy ko'rinishga aloqador tushunchadir. Ekoturizm, bir tomonidan, zararli oqibatlarni minimallashtirgan holda, umuman turizmnинг izchil va barqaror rivojlanishini ta'minlashga qodir bo'lsa, ikkinchi tomonidan, hozirgi va kelajak avlodlarning hayotiy ehtiyojlarini, bиринчи navbatda, sog'lom turmush tarzi muhitiga bo'lgan ehtiyojni uyg'unlashtiradi. Ekologik turning mohiyati quyidagicha ifodalanadi: Ekotizimlar yaxlitligini buzmagan holda ma'lum bir hududning tabiiy va madaniy hamda etnografik xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo'lish uchun tabiatni nisbatan bokira bo'lgan, yani inson qadami deyarli tegmagan joylarga sayohat qilish.

Ekoturizm sohasida umumiy iqtisodiy va bozor manfaatlari, shahar va qishloq aholisining talablari kesishadi, hozirgi zamon insonlarining o'z hayotini ma'noli o'tkazish va kelajak avlodlar hayotiga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishning yangi paradigmasi shakllanmoqda.

**Ekologik madaniyat** – bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo'llay bilish faoliyati, atrof-muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko'rsatkichi, ongli va ma'suliyatli yondashuvdir.

Yaqin vaqtlargacha tadqiqotchilar biosferaning unsuri sifatida insonga unchalik qiziqish bildirmaganlar va tabiiy muammolarning butun qatlami ijtimoiy fanlar nazaridan chetda qolgan, shuning uchun ular zamonaviy ekologik muammolarga tayyor emas edilar: "Faqat ekologiya orqali g'oyalar paydo bo'ladi. Tabiatshunoslikning, bиринчи navbatda, o'z-o'zini tashkil etish nazariyasi (universal evolyutsionizm) jamiyat faniga kirib, uning tabiat bilan bog'liq eng murakkab masalalarini yoritib bera boshladи" [15].

Zamonaviy inson hech bo'lмагanda vaqt-vaqt bilan urbanizatsiya va texnogen dunyoniga tark etib, tabiatga murojaat qilishi kerak. Binobarin, V.Kutyrev ta'kidlaganidek, tabiat bo'laklarini "tabiat yodgorliklari" deb atash to'g'ri bo'lardi. Sayyorada affusuki, sun'iy muhitning uzlusiz massivida faqat kichik bir individual tabiat qo'shimchalari (qo'riqxonalar, bog'lar va boshqalar) saqlanib qolgan [13].

Bugungi kunda turizm bilan shug'ullanish uchun juda ko'p sabablar mavjud. Odamlar real sharoitlarda jismoniy imkoniyatlarni boshdan kechirishga harakat qiladilar, ya'ni tabiat hayotiga faol ishtirok etishni xohlashadi. Sensorli tajribani boshdan kechirish va instinktlarni uyg'otish istagi bиринчи o'ringa chiqadi. Yuqori texnologiyali uskunalar: poyabzal, kiyim-kechak, chodirlar, dubulg'alar, namlovchi qoplar, ko'chma suv tozalagichlar ishlab chiqarish ko'paymoqda. Bularning hammasi kishilarni turizm bilan shug'ullanish istagini ro'yobga chiqarmoqda.

So'nggi paytlarda zamonaviy turizmnинг quyidagi yangi shakllari paydo bo'ldi: ekologik, ekstremal, harbiy (harbiy dramatizatsiyalarda ishtirok etish), sport (alpinizm, so'rfing va

boshqalar). Zamondoshlar sayohatlarining ko'pchiligin "shoping turizm", qishloq turizmi, agroturizmi, sarguzashtli sayohat, kosmik turizm, virtual sayohat, tibbiy sayohatlar ham o'sib bormoqda. Tibbiy turizm plastik jarrohlik, jinsni o'zgartirish, transplantatsiya va shunga o'xshash maqsadlarda sayohatlar kabi yangi shakllarni oldi. Misol uchun, Interpol ma'lumotlariga ko'ra, braziliyaliklar Yoxannesburgga boradilar va u yerda badavlat bemorlarga a'zolarni xususiy klinikalar orqali sotadilar.

Turizmning rentabelligiga haddan tashqari e'tibor berish, uning asosiy maqsadini soddalashtirishga olib kelmoqda. Turizmning bunday "industriya" tamoyili "barchadan ustunlik" g'oyasini rivojlantirmoqda. Dam olish maskanlarida qulay sharoitlar yaratish va shu orqali iste'molchining dunyoga munosabatini shakllantirishga katta mablag' sarflanadi. Frantsuz faylasufi J.Bodriard zamonaviy turizmni giperstrofiyalangan birgalikda yashash shakli sifatida izohlaydi.

Tabiatni vahshiylarcha ekspluatatsiya qilishdan farqli o'laroq, ekologik turizm mavjud bo'lib, uning asosiy g'oyasi ishlab chiqilgan. Jahon sayyoohlilik tashkiloti ta'rifiga ko'ra, ekoturizm - bu hayvon va o'simlik dunyosini kuzatish, o'rganish, madaniy qadriyatlar bilan tanishish maqsadida tabiatning nisbatan bokira bo'lgan inson xo'jalik faoliyatidan uzoqlarga sayohat. Turizmning boshqa turlaridan farqli o'laroq, ekologik turizm rivojlangan infratuzilmani talab qilmaganligi sababli tabiiy muhitga kamroq salbiy ta'sir ko'rsatishi kerak [25].

Shunday qilib, ekologik turizm sayyoohlilik faoliyatining ommabop shakliga aylanadi, u zamonaviy insonning ekologik madaniyati va ekologik kompetentsiyasini shakllantirishni rag'batlanadiradi, uning dunyoqarashini kengaytiradi, adekvat hissiy va estetik rivojlanishni ta'minlaydi.

Biroq, avtomagistrallarni, restoranlarni hamda zamonaviy turizm va rekreatsiya infratuzilmasining zarur tarkibiy qismlarini yaratishni ta'minlaydigan, foydali, qulay turizm yovvoyi tabiatning bokiraligini buzadi va uning tanazzulga uchrashiga olib keladi. Oqibatda yovvoyi tabiatning noyob joylari, vohalari yo'q bo'lib ketadi, yangi ekomadaniyat esa bunday jarayonni to'xtatadi. Zamonaviy turizm sanoati (yo'llar, lagerlar, transport va boshqalar) tabiiy muhitning normal ekologik rivojlanishini buzmay qolmaydi. Shuning uchun tabiat, inson va jamiyatning uzviy birligi g'oyasi shaxsning dunyoqarashining shakllanish jarayonida asosiy g'oyaga aylanishi kerak.

Hozircha esa turistik industriya va infratuzilmaning tabiiy muhitga salbiy ta'siri davom etmoqda. Turli mamlakatlarning qonunchiligi va me'yoriy hujjatlarida tabiatni muhofaza qilish ustuvorligi e'lon qilinganiga qaramay, bu sohada iqtisodiy va moliyaviy manfaatlar ustunlik qilmoqda. Ammo, hatto biznes ham tabiat talablari bilan hisoblashishi kerak. Uni amalga oshirish mamlakatda istiqbolli va barqaror turizmni shakllantirish uchun zaruriy shartdir.

Hozirgacha erishilgan ekologik madaniyat darajasi samarasiz bo'lib kelmoqda. Ommaviy turizmning tabiat va madaniyatga halokatli ta'siri davom etmoqda. Ekologiya va boshqa soha olimlari mulkdorlar bilan uzoq davom etayotgan "urush"ni davom ettirib, ularni milliy tabiiy boyliklarni asrab-avaylash, inshootlar qurish, muhofaza etiladigan hududlarda transport aloqalarini cheklash, turistik marshrutlarni ekologik jihatdan tekshirish zarurligiga ishontirmoqda, xolos. Olimlar va mulkdorlar o'rtasidagi ziddiyatni hal qilishning qiyinligiga bir misol keltirish mumkin: madaniyat vazirligining sayyoohlarni jalb qilish maqsadida muzey qo'riqxonalari hududida mehmonxonalar tarmog'ini barpo etish tashabbusi muzey biznesining rivojlanishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

Turizm nafaqat uyushgan sayohat, balki diqqatga sazovor joylarni ko'rishning kengayishi, xilma-xil va murakkab dunyoda insonning birgalikda mavjudligi hissini tasdiqlashdir. Globallashuv sharoitida uning muhim vazifasi boshqa madaniyatlarni tushunish qobiliyatini shakllantirish, kommunikativ madaniyatni egallashdir. Turizm, ayniqsa, ekologik turizm noyob tabiiy va madaniy qadriyatlar bilan tanishish imkonini beradi. Bunday vaziyatlarga tayyor bo'limgan odamning notanish madaniyatga sho'ng'ishi natijasida o'ziga xos stress olishi mumkin. Madaniyat zarbasi shaxsning jamiyatda faoliyat yuritishiga yordam beruvchi tanish psixologik omillar yo'qolib, ularning o'rnida noma'lum va tushunarsiz bo'lib ko'ringanida yuzaga keladi"

[16], masalan, kechikish odatiy hol, kulish suhbattoshning eshitib turishini anglatishi mumkin va hokazo. Ammo, bular turli xil madaniyat vakillariga turlicha ma'noga ham ega va boshqa madaniyat vakiliga boshqacha ta'sir qilishi mumkin. Bunday madaniyat zarbasi boshqa madaniyatni tushunish qobiliyatini shakllantirish uchun rag'batlantiruvchi omil bo'lib hisoblanadi. Bu jihatda turizm etikasini yoki V. Pazenkoning fikricha, turizm tashkilotchilariga ham, umumiylar turizm hamjamiyatiga xos bo'lishi kerak bo'lgan "ma'naviy-psixologik komponent"ni rivojlanirish zarurati tug'iladi [18]. Notanish odamlar va vaziyatlar bilan uchrashganda odoblilik va yaxshi xulq-atvor e'tiborli, do'stona va mehmondo'st bo'lishga imkon beradi, shuning uchun turizm individual va jamoaviy takomillashtirishning samarali vositasidir.

Turizmning rivojlanishi boshqa soha va tarmoqlarning tadbirkorligi uchun yangi imkoniyatlar ochadi. Jahon sayyoqlik tashkilotining sobiq bosh kotibi F.Franjiallining so'zlariga ko'ra, so'nggi 50 yil ichida turizm biznesi va dam olish sanoati Yevropa va Shimoliy Amerikaning iqtisodiy rivojlanishining kuchli omiliga aylandi. Osiyo, Yaqin Sharq, Lotin Amerikasi va ba'zi Afrika mamlakatlari ham turizmning ijobiyligi ta'sirini boshdan kechirmoqda. "Turizm rivojlangan joyda qashshoqlik kamayadi" [23].

Turizm asosan sanoatlashgan sohaga aylangan bo'lib, uni ekologik toza yo'nalishga yo'naltirish bo'yicha harakatlarni birlashtirish juda murakkab muammo bo'lib hisoblanadi. Turizm bo'yicha Gaaga deklaratsiyasi (1989) tamoyillarida qayd etilganidek, tabiiy, madaniy va insoniy muhit turizmni rivojlanirishning asosiy shartidir. Turizmni oqilona tashkil etish tabiiy landshaftlar va madaniy merosni muhofaza qilish, turmush darajasini oshirishga qodirdir [1]. Buning uchun xalqni, jumladan, turistlarni tabiiy va madaniy boyliklarga hurmat ruhida tarbiyalash zarur. Faqat shunday turizm xalqaro miqqyosda insoniy munosabatlar sifatini oshirishga qodir hamda dunyo tinchligiga va barqarorligiga erishishga imkon berishi mumkin.

Keyingi paytlarda chiqindilarni utilizatsiya qilish, sayyoohlarni mahalliy ekologik muammolarni hal qilishga jalb etishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ekologik turizm esa tabiatni muhofaza qilish mahalliy aholi uchun foydali bo'ladigan iqtisodiy sharoitlarni yaratadi. Turizmning bu tarmog'i tabiiy va madaniy muhitni asrashga qaratilgan bo'lib, ularning faol himoyachisining zarur belgilarni shakllantiradi.

Zamonaviy ekologik turizm har doim ham faqat ryukzak ko'tarib qilinadigan sayohat hamda jismoniy tayyorgarlikka ega odamlar uchun emas, balki hamma uchun juda qulay, ammo atrof-muhit uchun zararsiz bo'lishi mumkin. Shu munosabat bilan ekologik transport - velosipedlar, motorli qayiqlar, paraplanlar va boshqalardan foydalanish samaralidir. Ammo, muhim muammo - dam olish joylarini (ovqat tayyorlash, o'choqlar, axlatlarni tozalash va boshqalar) oqilona, ekologik talablarga javob beradigan tarzda tashkil etish qoladi.

Ekologik madaniyatning huquqiy va axloqiy asosini shaklanishiga katta qadam bo'lgan turizmning Global axloq kodeksi 1999-yil 1-oktabrda Chilining Santyago shahrida BJTT Bosh Assambleyasining XIII sessiyasida qabul qilingan [2]. Turizmning axloq kodeksida yangi ming yillik boshlanishida jahon turizmini mas'uliyatli va izchil rivojlanirish bo'yicha ko'rsatmalar to'plami belgilangan. U ko'plab oldingi shunga o'xshash deklaratsiyalar va amaldagi professional kodekslarning g'oyalalariga asoslanadi va XXI asr boshida bo'lgan jamiyatdagi o'zgarishlarni aks ettirish uchun yangi fikrlashni keltirib chiqardi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Barqaror rivojlanish bo'yicha komissiyasi 1999 yil aprel oyida Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan sessiyasida ushbu Kodeksning konsepsiyasini ma'qulladi va BJTTga uni xususiy sektor, nodavlat va mehnat tashkilotlarining qo'shimcha takliflari bilan boyitishni taklif qildi. Kodeksga BJTTga a'zo davlatlar va turli tashkilotlar tomonidan 70 dan ortiq yozma izohlar kelib tushdi.

#### **Turizm uchun global axloq kodeksi o'nta moddadan iborat:**

- 1-modda. Turizmning xalqlar va jamiyatlar o'rtasidagi o'zaro tushunish va hurmat qilish.
- 2-modda. Turizm individual va jamoaviy takomillashtirish omilidir.
- 3-modda. Turizm barqaror rivojlanish omilidir.
- 4-modda. Turizm insoniyatning madaniy merosidan foydalanadigan va uni boyitishga hissa qo'shadigan sohadir.

5-modda. Turizm mezbon mamlakatlar va jamoalar uchun foydali faoliyatdir.

6-modda. Turistik jarayon ishtirokchilarining majburiyatlari.

7-modda. Turizm huquqi.

8-modda. Turistik sayohat erkinligi.

9-modda. Turizm sohasida ishchilar va tadbirkorlarning huquqlari.

10-modda. Turizmning global axloq kodeksi tamoyillarini amalga oshirish.

Kodeksda turizm sohasidagi quyidagi masalalar yoritilgan: turizmning odamlar va jamiyatlarning o‘zaro tushunishi va o‘zaro hurmatiga qo‘sghan hissasi; turizm biznesi mutaxassislarining majburiyatlari; turizm huquqi; turistik harakat erkinligi; turizm industriyasidagi ishchilar va tadbirkorlarning huquqlari.

Turizmga individual va jamoaviy o‘zini-o‘zi anglashning dvigateli sifatida qaraladi; u barqaror rivojlanish omili; madaniy merosdan foydalanuvchi va yaratuvchi; mezbon mamlakatlar va jamoalar uchun foydali faoliyat.

Ushbu kodeksga tayangan holda Xalqaro Ekologik Turizm Jamiyati (XETJ) quyidagi “**Turistik axloq kodeksi**”ni taklif qildi:

- Yerning zaifligini yodda tuting;
- Faqat iz qoldiring, faqat suratga oling;
- Siz tushgan dunyoni o’rganing, tanishing;
- Mahalliy aholini hurmat qiling;
- Atrof-muhitga tahdid soladigan mahsulotlarni xarid qilmang;
- Faqat yaxshi iz qolgan, bosilgan yo’llardan yuring;
- Atrof-muhitni muhofaza qilish bo'yicha faoliyatni va tabiatni muhofaza qilishga hissa qo’shadigan tashkilotlarni qo’llab-quvvatlang;
- Ekologik turizm tamoyillarini qo’llab-quvvatlaydigan kompaniyalar bilan sayohat qiling.

Ekologik turizm ekologik madaniyatning zarur sharti bo‘lgan ekologik bilimlar asoslarini o‘zlashtirishga yordam beradi. Zero, tabiyat ham estetik qadriyat vazifasini bajaradi. Qolaversa, faylasuf O.Spengler ta’kidlaganidek, “manzara insonning ruhini shakllantiradi” [34].

Xullas, zamonaviy turizm industriyasi daromadlarining katta qismini ta’minlovchi ekoturizm faol rivojlanmoqda. Turizm faoliyatini tashkil etish va turizm infratuzilmasi bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash shakllari takomillashtirilmoqda, turizm fanlarining yaxlit, fundamental tizimi shakllantirilmoqda [3]. Bular esa ekologik muammolarni hal qilishga o‘z hissasini qo’shadi.

### **Xulosa.**

○ Hozirgi sivilizasiya shu darajaga yetib keldiki, inson faoliyati tomonidan vujudga kelgan hamda kelayotgan ekologik muammolarni hal qilmasdan turib, bundan keyin taraqqiy qila olmaydi. Hozirgi zamondagi ekologik voqelik davlatlarning siyosiy, iqtisodiy, demografik, ijtimoiy - gumanitar va ma’naviy-axloqiy rivojlanishining barcha jabhalariga ta’siri shu qadar yaqqol va keng ko‘lamli bo’lib ketdi. Avvalom-bor, bu muammolarni muhimligini tushunib yetish zarur, so’ngra ularni bartaraf etish ushun inson mavjudotining ekologik madaniyatni shakllantira bilish kerak. Bu madaniyatni shakllantirishning eng samarali vositali bo’lgan ekologik turizmni rivojlanirish maqsadga muvofiqdir.

○ Ekologik muammolarni hal qilishning muhim vazifalaridan biri insonlarni, jumladan turistlarni tabiiy va madaniy boyliklarga hurmat ruhida tarbiyalash zarur. Ushbu vazifani bajarishga ekologik turizm xalqaro miqyosda insoniy munosabatlar sifatini yaxshilashga qodir. Ekoturizm rivoji dunyo xotirjamligini, iqtisodiyotni barqarorligini ta’minlashga imkon berishi mumkin bo’lgan eng oqilona yo’ldir.

○ Ekologik turizm ekologik madaniyatning zarur sharti bo‘lgan ekologik bilimlar asoslarini o‘zlashtirishga yordam beradi. Ekologik turizm - madaniy, ma’naviy - ma’rifiy, ilmiy, sport va rekreatsion ahamiyatga ega bo’lgan faol dam olishning o‘ziga xos shakli bo’lib, dam olish, atrofdagi tabiiy va madaniy muhit bilan tanishish maqsadida odamlarning doimiy yashash joyidan tashqarida sayohat qilishlari va qolishlari jarayonida yuzaga keladigan munosabatlar va hodisalar yig’indisi sifatida belgilanadi.

○ Ekologik ta'lismi va tarbiya tizimi zamonaviy odamlarda ekologik ongni shakllantirishning faol vositasidir, shuning uchun umumiyligi ta'lismi jarayoniga ekologik tarkibiy qismlarni organik ravishda jalgan qilish va uning didaktik yukini sezilarli darajada oshirish maqsadga muvofiqdir.

○ Ekoturizm, bir tomonidan, tabiatga yetishtiriladigan zararli oqibatlarni minimallashtirgan holda, umuman turizmning izchil va barqaror rivojlanishini ta'minlashga qodir bo'lsa, ikkinchi tomonidan, hozirgi va kelajak avlodlarning hayotiy ehtiyojlarini, birinchi navbatda, sog'lom turmush tarzi muhitiga bo'lgan ehtiyojni uyg'unlashtiradi.

○ Ekologik madaniyat – bu tabiat haqidagi bilim, ong, idrok, savodxonlik, intellektual salohiyat va uni amalda qo'llay bilish faoliyati, atrof-muhitga nisbatan faoliyatning yuksak ko'rsatkichi, ongli va ma'suliyatli yondashuvdir. Planetada hozirgacha erishilgan ekologik madaniyat darajasi samarasiz bo'lib kelmoqda. Ommaviy turizmning tabiat va madaniyatga halokatli ta'siri davom etmoqda. Ekologik madaniyatni talab darajasiga chiqarish uchun davlatlar va tashkilotlar o'z ta'sir doirasida ekologik madaniyatning huquqiy va axloqiy asosini shaklanishiga katta qadam bo'lgan BMT tomonidan qabul qilingan turizmning Global axloq kodeksini hamda Xalqaro Ekologik Turizm Jamiyati (XETJ) tominidan taklif qilingan "Turistik axloq kodeksi"ni har bir mamlakat, har bir korxona va tashkilot hamda har bir fuqaroning hayotiga tadbiq qilish ustida ish olib borishlari maqsadga muvofiqdir.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:**

1. «Гаагская декларация по туризму» Гаага, март-апрель 1989. - [/https://ecis.info/cooperation/3029/77713/](https://ecis.info/cooperation/3029/77713/)
2. «Глобальный кодекс этики туризма» Принят в 1999 г. На XXIII сессии Генеральной ассамблеи Всемирной туристской организации.- [/https://www.un.org/ru/documents/decl\\_conv/conventions/pdf/tourism.pdf](https://www.un.org/ru/documents/decl_conv/conventions/pdf/tourism.pdf).
3. Горбань А.В. Экологическая культура – мировоззренческая сущность и ценностная ориентация экологии человека. Вопросы духовной культуры – Филологические науки N1. - 1-6с. [/http://dspace.nbuv.gov.ua/bitstream/handle/123456789/89774/39-Gorban.pdf?sequence=1](http://dspace.nbuv.gov.ua/bitstream/handle/123456789/89774/39-Gorban.pdf?sequence=1).
4. Гржимек Б. Дикое животное и человек / Б. Гржимек. – М., 1982.
5. Долженко Г. П. Туризмоведение / Г. П. Долженко, О. В. Ивлиева; – Ростов-на-Дону: Южный федеральный университет, 2014. – Выпуск 1. – 168 с. – Режим доступа: по подписке. – URL: [/https://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=445306](https://biblioclub.ru/index.php?page=book&id=445306) (дата обращения: 30.12.2021). – Библиогр. в кн. – ISBN 978-5-9275-1247-8.
6. Долженко Г.П. Туризмология, туризмоведение или туристика. URL: <http://gennadiy-dolzhenko.ru>.
7. Долженко Г.П., Путрик Ю.С., Савенкова Л.Б. Наука о туризме: основания выбора номинации // География и туризм. 2010. Вып.9. С.3-11.
8. Долженко Г.П., Путрик Ю.С. Туризмоведение - формирующаяся научная дисциплина о сфере туризма // Вопросы туризмоведения. 2012. № 2. С.5-11.
9. Зорин И. В. Туристика: монография / И. В. Зорин, В. А. Квартальнов. - М.: Советский спорт, 2001. 288 с. [/https://search.rsl.ru/ru/record/01000730508](https://search.rsl.ru/ru/record/01000730508)
10. История туризма: учебник для академического бакалавриата / Г.П. Долженко, Ю.С. Путрик, А.И. Черевкова. - 2-е изд., перераб. и доп. - М.: Издательство Юрайт, 2019. - 227 с. - [/https://biblio-online.ru/book/istoriya-turizma-428448](https://biblio-online.ru/book/istoriya-turizma-428448).
11. Квартальнов В. А. Биосфера и туризм: Глобальное взаимодействие и экология, география научных исследований территорий туристического назначения, культура мира системы трудовых миграций, педагогика, социология и стратегия управления: в 5 т. /В. А. Квартальнов - Т. 1: Теория и практика туристских исследований. – М.: Наука, 2002.
12. Крисаченко В. С. Экологическая культура / В. С. Крисаченко. – К. 1996.-352с.
13. Кутырев В. А. Могущественный раб техники... / В. А. Кутырев // Человек. - 2006. - № 4.

14. Лихачев Д.С. Прошлое - будущему: статьи и очерки. /Библиография трудов Д.С. Лихачева/ - Л.: Наука, 1985. - 575 с.  
[/https://www.lihachev.ru/lihachev/bibliografiya/4617/](https://www.lihachev.ru/lihachev/bibliografiya/4617/)

15. Моисеев Н. Н. Современный антропогенез и цивилизационный разлом (эколого-политический анализ) / Н. Н. Моисеев // Вопросы философии. – 1995. – № 1.

16. Окишев П. А. Основы туризмоведения / П. А. Окишев. - Томск, 2005.

17. Олейник Я. Б. Теоретические основы туризмологии: учеб, пособ. / Я. Б. Олейник, А. В. Степаненко. – К.: Ника-Центр, 2005.

18. Пазенок В. С. Туризмология. Теоретический обзор / В. С. Пазенок. – М., Издательство: Альтерпрес 2012. - 276с. - [/https://profbook.com.ua/turizmologia.html](https://profbook.com.ua/turizmologia.html).

19. Основы туризма. /Под научной редакцией доктора юридических наук Е.Л.Писаревского Учебник. Москва. 2014. - 314с.  
[/http://elib.fa.ru/ebook/basics\\_of\\_tourism.pdf/download/basics\\_of\\_tourism.pdf](http://elib.fa.ru/ebook/basics_of_tourism.pdf/download/basics_of_tourism.pdf).

20. Путрик Ю.С., Долженко Г.П., Первунин С.Н. Туризмоведение – научная составляющая часть туристской деятельности - Вестник МГУКИ. 2015. №3(65). С.89-97.  
[/https://cyberleninka.ru/article/n/turizmovedenie-nauchnaya-sostavlyayuschaya-chast-turistskoy-deyatelnosti/viewer](https://cyberleninka.ru/article/n/turizmovedenie-nauchnaya-sostavlyayuschaya-chast-turistskoy-deyatelnosti/viewer).

21. Российский энциклопедический словарь «Туризм». Под ред. С.Ю. Житенёва. М.: Институт Наследия, 2018. – 490 с. ISBN 978-5-86443-263-1. [http://heritage-institute.ru/wp-content/uploads/2018/09/37\\_2018\\_rossijskij-encziklopedicheskij-slovar\\_turizm.pdf](http://heritage-institute.ru/wp-content/uploads/2018/09/37_2018_rossijskij-encziklopedicheskij-slovar_turizm.pdf).

22. Федорченко В.К. Туризмология как наука. Основные парадигмы теории туризма. Вестник РМАТ № 2(8). 2013. С.3-11. -<https://cyberleninka.ru/article/n/turizmologiya-kak-nauka-osnovnye-paradigmey-teorii-turizma/viewer>.

23. Фоменко Н. А. Педагогика высшей школы: методология, состояние стандартизация туристического образования / Н. А. Фоменко. - К.: Изд. дом «Слово», 2005.

24. Экологическая энциклопедия: в 3-х т. - К.: ООО «Центр экологического образования и информации», 2008.

25. Энциклопедический словарь-справочник. 2019  
[/https://www.elibrary.ru/item.asp?id=41244083](https://www.elibrary.ru/item.asp?id=41244083).

26. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Vladimir\\_Vernadskiy](https://uz.wikipedia.org/wiki/Vladimir_Vernadskiy).

27. [https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A5%D0%B9%D0%B4%D0%B3%D0%BF%D0%BC%D0%BE%D0%BD%D0%BD%D0%B0%D1%8F\\_%D0%9C%D0%BC%D0%BB%D0%BD%D0%BE%D0%BD%D0%BD%D0%BE%D0%BA%D0%BE%D0%BC](https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%A5%D0%B9%D0%B4%D0%B3%D0%BF%D0%BC%D0%BE%D0%BD%D0%BD%D0%B0%D1%8F_%D0%9C%D0%BC%D0%BB%D0%BD%D0%B8%D1%82%D0%BD%D0%BE%D0%B9) Хайдеггер, Мартин.

28. [https://en.wikipedia.org/wiki/Lewis\\_Mumford](https://en.wikipedia.org/wiki/Lewis_Mumford).

29. <https://www.semanticscholar.org/author/S.-Krimsky/3883141>.

30. [https://en.wikipedia.org/wiki/Merab\\_Mamardashvili](https://en.wikipedia.org/wiki/Merab_Mamardashvili).

31. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Fromm\\_Erix](https://uz.wikipedia.org/wiki/Fromm_Erix).

32. [https://chimfac.chuvsu.ru/science-work.php?page=tab\\_t&id=74](https://chimfac.chuvsu.ru/science-work.php?page=tab_t&id=74)

33. [https://en.wikipedia.org/wiki/Edgar\\_Morin](https://en.wikipedia.org/wiki/Edgar_Morin).

34. [https://en.wikipedia.org/wiki/Oswald\\_Spengler](https://en.wikipedia.org/wiki/Oswald_Spengler).

35. <https://cyberleninka.ru/article/n/ekologik-madaniyatning-rivojlanishi-ijtimoiy-taraqqiyot-omilli-sifatida-tutgan-o-rni/viewer>.

36. <https://cyberleninka.ru/article/n/jamiyatda-ekologik-madaniyatning-shakllanish-omillari>.